

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ERTAK TERAPIYA ORQALI BOLALARNING EMOTSIONAL RIVOJLANISHINI SHAKLLANTIRISH

*Andijon viloyati Izboskan tumani
53-sonli DMTT Direktor o'rinbosari
Mo'minova Dilnoza Muqumjon qizi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional rivojlanishida ertak terapiyaning o'rni yoritilgan. Ushbu metod bolalarda empatiya, emotsional barqarorlik va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Аннотация: В статье рассматривается роль сказкотерапии в эмоциональном развитии детей дошкольного возраста. Показано, что данный метод способствует формированию эмпатии, эмоциональной устойчивости и социальных навыков у детей.

Abstract: This article examines the role of fairy tale therapy in the emotional development of preschool children. It shows that this method helps develop empathy, emotional stability, and social skills.

Kalit so'zlar: Ertak terapiya, emotsional rivojlanish, maktabgacha ta'lim, emotsional intellekt, empatiya, ijtimoiy ko'nikmalar, nutq rivoji, kreativ fikrlash, psixologik rivojlanish, pedagogik texnologiyalar.

Ключевые слова: сказкотерапия, эмоциональное развитие, дошкольное образование, эмоциональный интеллект, эмпатия, социальные навыки, развитие речи, креативное мышление, психологическое развитие, педагогические технологии.

Keywords: fairy tale therapy, emotional development, preschool education, emotional intelligence, empathy, social skills, speech development, creative thinking, psychological development, pedagogical technologies.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimida ham emotsional intellektni rivojlantirish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. 2022-yilda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan yangi o'quv-dasturlarda bola shaxsining ijtimoiy-emotsional rivoji alohida komponent sifatida ajratilgan. Ayni chog'da, ko'plab xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, emotsional intellekti yuqori bo'lgan bolalar maktabga tayyorlik darajasida, ijtimoiy muvofiqlashishda va stressga chidamlilikda sezilarli ustunlikka ega bo'ladilar. Misol uchun, AQSHda olib borilgan bir tadqiqotga ko'ra, emotsional savodxonligi yuqori bo'lgan bolalar 1–3-sinflarda sinfdoshlar bilan ijobiy aloqa o'rnatishda 78% yuqori natijalarga erishgan. Bolalarning emotsional intellektini rivojlantirishda teatr va drama o'yinlari, shuningdek ertaklar

muhim o‘rin egallaydi. Bu vositalar orqali bola o‘z his-tuyg‘ularini ifoda qilish, boshqalar histuyg‘ulariga empatiya bilan yondashish, ichki holatlarni ongli ravishda idrok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ertaklar bolalarning lingvistik tajribasini boyitadi, obrazli fikrlashni shakllantiradi, lug‘at zaxirasini kengaytiradi va grammatik tuzilmalardan to‘g‘ri foydalanishga yordam beradi. Ertak kompozitsiyasi, takrorlar, dialoglar, voqealar ketma-ketligi bolalarning nutqni mantiqiy qurish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Ertakni tinglash jarayonida bolalar faol idrok qiladi, umumlashtirish va tasavvur qilish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Qayta hikoya qilish esa monologik nutqning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bolalar ertak qahramonlari ovozini, harakat uslubini taqlid qilish orqali fonetik ko‘nikmalarini, talaffuz aniqligini, intonatsion ifodaliligini rivojlantiradi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ertak bilan ishlashning turli metodlari mavjud: ifodali o‘qish, drammatizatsiya, rolli ijro, qo‘g‘irchoqlar orqali sahnalashtirish, ertakni davom ettirish, ertak asosida jonli dialog tashkil etish, ijodiy qayta hikoya qilish va boshqalar. Bu metodlar bolalarda so‘z boyligini oshiradi, matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, nutq strukturasi va grammatik qurilishini mustahkamlaydi. Ayniqsa sahnalashtirish elementi bolalarning nutqiy faoliyatini kuchli rag‘batlantiradi, ular o‘z nutqiga emotsional rang berishga intiladilar, intonatsiya, pauza va artikulyatsiyani ongli tarzda qo‘llay boshlaydilar.

Emotsional rivojlanish bolalarning nafaqat o‘qish, balki hayotiy muvaffaqiyatga erishishlarida ham muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, emotsional jihatdan barqaror va o‘z hissiyotlarini anglay oladigan bolalar ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli va faol shaxs sifatida shakllanadi. ^[1]Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi davrda bu ko‘nikmalarning asoslari qo‘yiladi. Shu sababli aynan 3-7 yosh oralig‘i emotsional intellektni rivojlantirish uchun eng nozik va ayni muhim bosqich hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta‘lim tizimida 2021–2024-yillar davomida olib borilgan islohotlar doirasida bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga alohida e‘tibor berildi. Jumladan, “Ilk qadam” o‘quv dasturida bolalarning hissiy holatlarini anglash va boshqarish ko‘nikmalari tarbiyalovchi mashg‘ulotlar ajratildi. Bu orqali hissiy ong va muloqot madaniyatiga asoslangan metodik yondashuvlarga ehtiyoj yanada oshdi.

Shuningdek, ertaklar bolalarda eshituv idrokini, xotirani, nutqiy diqqatni, assotsiativ fikrlashni kuchaytiradi. Bolalarning psixologik rivojlanishida ertak terapiyasi alohida o‘rin tutadi: ertak orqali bola o‘zini qahramon bilan qiyoslaydi, qiyinchiliklarni yengish, to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganadi. Bu jarayon nutqiy izchillikni ham rivojlantiradi, chunki bola voqeani mantiqiy bog‘lanishda qayta hikoya qilishga intiladi.


¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Maktabgacha ta‘lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaror (802-son). – Toshkent, 2019.

Ertak terapiya – bu psixologik-pedagogik usul bo‘lib, unda ertaklar orqali bolaning ichki kechinmalari, qo‘rquv va hissiyotlari bilan ishlanadi. Ushbu metod bolaga o‘z his-tuyg‘ularini anglash va ularni to‘g‘ri ifoda etishni o‘rgatadi.

Ertaklar bolaga quyidagi jihatlarida ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:



Ertakning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning obrazlilik, takrorlari, ohangdor iboralari va dialogik shaklda qurilgan nutqidir. Aynan shu jihatlar bolalar nutqining ravonligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida bolalarning dialog qurish ko‘nikmalari shakllanib borganligi kuzatildi. Bu holat ertaklar kelib chiqishi jihatidan dialogik muloqotga asoslangan bo‘lgani bilan bog‘liqdir. Qahramonlar orasidagi dialoglarni tinglagan bola ularning nutq strukturasi, savol-javob shakllari, tilning intonatsion imkoniyatlarini tabiiy ravishda o‘zlashtiradi. Bolalar ertaklarni qayta hikoya qilish jarayonida, ayniqsa dramatisatsiya mashg‘ulotlarida dialogik nutqni faol qo‘llay boshlashdi. Ertaklar orqali bola hayotiy voqealarni anglaydi, ijobiy va salbiy obrazlar asosida xulq-atvor me’yorlarini shakllantiradi, muammolarga yechim topish ko‘nikmasini o‘zlashtiradi. Shuningdek, xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatmoqdaki, san’at elementlariga asoslangan maktabgacha ta’lim dasturlari farzandlarining maktabga tayyorgarlik darajasini oshiradi, ularni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga xizmat qiladi.



Ertak terapiya maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional rivojlanishida muhim pedagogik-psixologik vosita hisoblanadi. Ushbu metod orqali bola o'z his-tuyg'ularini anglaydi, ularni boshqarishni o'rganadi hamda atrofdagilar bilan sog'lom munosabat o'rnatishga moslashadi. Ertak terapiya maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional rivojlanishini ta'minlashda samarali va zamonaviy yondashuvdir. U bolalarda hissiy barqarorlik, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois ushbu metodni MTT ta'lim-tarbiya jarayoniga keng joriy etish muhim hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertak terapiya bolalarning emotsional rivojlanishini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu metod bolalarning hissiy dunyosini boyitadi, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi va psixologik barqarorligini ta'minlaydi.

Shu sababli ertak terapiyani ta'lim jarayoniga keng joriy etish, pedagoglarning bu boradagi kompetensiyasini oshirish va zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Masalan: Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda innovatsion yondashuvlar bilan bir qatorda, milliy va madaniy qadriyatlarga asoslangan faoliyat turlari ham keng joriy etilmoqda. Jumladan, "Turon kichkintoylar teatr jamoalari" faoliyati orqali bolalarda ijodkorlik, nutq madaniyati, sahna madaniyati hamda emotsional ifodalanish ko'nikmalari samarali shakllantirilmoqda.

Mazkur teatr faoliyati bolalarning ertaklar asosida obrazlarga kirishi, rollarni ijro etishi orqali ularning tasavvur doirasini kengaytiradi, ijtimoiylashuv jarayonini jadallashtiradi hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga,

teatr elementlaridan foydalanish ertak terapiyasi jarayonlarini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

MTTlarda bolalarning ijodiy va emotsional rivojlanishida “Turon kichkintoylar teatr jamoalari” faoliyati muhim o‘rin tutib, u orqali bolalarda nutq, sahna madaniyati va jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Zamonaviy MTTlarda bolalarni rivojlantirishda interfaol usullar bilan bir qatorda teatr texnologiyalaridan ham samarali foydalanilmoqda. Jumladan, “Turon kichkintoylar teatr jamoalari” orqali tashkil etilayotgan sahna faoliyati bolalarda mustaqil fikrlash, rolli o‘yinlar orqali o‘rganish va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini jadallashtiradi.

Ertakning yana bir muhim ta‘sir jihati shundaki, u bolalarning mantiqiy fikrlashi va bog‘lanishli nutqni shakllantirishga yordam beradi. Syujetli matn bilan ishlash, qahramonlar harakati o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tushunish, voqealar ketma-ketligini tiklash kabi jarayonlar bolalarda nutq strukturasi, matn tuzish qobiliyati, izchil fikrlash ko‘nikmasini mustahkamlaydi. Ertak asosida qayta hikoya qilish, ertakni davom ettirish yoki o‘zgacha yakun yaratish kabi topshiriqlar bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirdi, ular nutqqa mustaqil yondashish, matn mazmunini qayta ishlash va o‘z nutqiy tajribasini boyitishga intila boshladilar.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ertak terapiya bolalarning emotsional rivojlanishini ta‘minlashda samarali pedagogik-psixologik vosita hisoblanadi. Ushbu metod orqali bolalarda emotsional intellekt, empatiya, ijtimoiy moslashuv hamda nutqiy kompetensiyalar shakllanadi va rivojlanadi. Shu bilan birga, zamonaviy yondashuvlar asosida teatr elementlarini, xususan “Turon kichkintoylar teatr jamoalari” faoliyatini ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish ertak terapiyaning samaradorligini yanada oshiradi. Teatr faoliyati orqali bolalar obrazlarga kirib, o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishni, jamoada ishlashni va mustaqil fikrlashni o‘rganadilar.

Natijada, bolalarning nafaqat emotsional, balki ijodiy va ijtimoiy rivojlanishi ham kompleks tarzda ta‘minlanadi. Shu sababli ertak terapiya va teatr faoliyatini uyg‘un holda qo‘llash, pedagoglarning bu boradagi kasbiy kompetensiyasini oshirish hamda mazkur metodlarni MTT amaliyotiga keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”. – Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Maktabgacha ta‘lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaror (802-son). – Toshkent, 2019.

3. N.A. Abduraxmonova “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida emotsional intellektni rivojlantirish: ertaklar, drama va teatr o‘yinlarining roli” Volume-40_Issue-2_June-2025

4. Zinkevich-Evstigneeva T.D.“Ertak terapiya asoslari (Osnovy skazkoterapii)”. – Sankt-Peterburg, 2000.

5. Internet manbalari:

- www.lex.uz (me’yoriy hujjatlar bazasi)
- www.gov.uz (rasmiy portal)
- www.researchgate.net (ilmiy maqolalar)